O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

SHAYZAKOV SHODIYAR IBRAGIMOVICH

FUQAROLIK PROTSESSIDA SUD HUJJATLARINI YUQORI INSTANSIYADA QAYTA KO‘RISH INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 347.931.2(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Shayzakov Shodiyar Ibragimovich
Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolari.....5-35

Шайзаков Шодияр Ибрагимович
Теоретические и практические проблемы института пересмотра судебных актов вышестоящей инстанцией в гражданском процессе.....36-71

Shayzakov Shodiyar Ibragimovich
Theoretical and practical issues of the institution of review of judicial acts by higher courts in civil procedure.…….....72-77

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..78-81

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

SHAYZAKOV SHODIYAR IBRAGIMOVICH

FUQAROLIK PROTSESSIDA SUD HUJJATLARINI YUQORI INSTANSIYADA QAYTA KO‘RISH INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Yu289-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:	**Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich** yuridik fanlar doktori, professor
	Safoyeva Sadoqat Musoyevna yuridik fanlar doktori
	Sindorov Komil Oydinovich yuridik fanlar doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 11-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: +99871-202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (99-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: +99871-202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 27-oktabr kuni tarqatildi.
(2026 yil 27-oktabrdagi 17-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Aminjonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.A.Quchkarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.S.Odinayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon standartlarida sud himoyasidan samarali foydalanish har bir insonning ajralmas huquqi sifatida qayd etilib, manfaatdor shaxsning sud qaroridan shikoyat qilish va birinchi bosqich sudining xatosini bartaraf etish yuzasidan yuqori sud instansiyalariga murojaat qilishi sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta’minlashga, shuningdek, sud xatolarini o‘z vaqtida bartaraf etishga imkoniyat yaratadi. World Justice Project xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan fuqarolik odil sudlovi indikatorida 143 ta davlat ichida O‘zbekiston 2021-yilda 78-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2025-yilda 73-o‘ringa ko‘tarilgan[1]. Ushbu natijalarga erishishda fuqarolik ishining birinchi instansiya sudida to‘g‘ri hal etilishi, balki sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rishning protsessual mexanizmlarini ham takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutini takomillashtirishda odil sudlovga erishish huquqi, sud qarorining qonuniyligi va asosliligi, sud xatolarini tuzatish zarurati bilan res judicata - hal qilingan ishning barqarorligi o‘rtasida maqbul muvozanatni ta’minlash dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda mavjud fuqarolik protsessual huquqining turli modellarida yuqori instansiya sudlarining vazifalari va vakolatlarini aniq chegarasini belgilash, sud hujjatlarini qayta ko‘rish doirasini aniqlash, yangi dalillarni qabul qilishni tartibga solish, shikoyatlarni qabul qilishning protsessual mexanizmini joriy etish, ishni yangidan ko‘rish uchun quyi boshqich sudlariga yuborish tartibini qisqartirish hamda yuqori instansiya sudlarining nizoni mazmunan hal qilish vakolatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Due process[2] - qonunga muvofiq shaxslarga adolatli va xolis munosabatda bo‘lish, Res Judicata[3] - hal qilingan ish, Procedural fairness[4] - protsessual adolat, Procedural-justice[5] - protsessual odil sudlov huquqiy doktrinalari hamda Open justice - ochiq odil sudlov va Open court principle[6] - ochiq sud tamoyili doktrina va prinsiplari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning mazmun-mohiyati sud hujjatlariga shikoyat qilish huquqini amalda to‘liq ta’minlash, fuqarolik ishlarining yuqori instansiyada qayta ko‘rish bosqichlarining takrorlanishi, shikoyat qilish huquqining ortiqcha cheklanishi yoki sud hujjatlarining cheklanmagan muddat va asoslarda qayta ko‘rish, sudga bo‘lgan ishonch hamda nizoni oqilona muddatda hal etishga oid protsessual muammolar muayyan ilmiy metodologik yondashuvlarni o‘rganishni va tahlil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini sud orqali ishonchli himoya qilish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hujjatlarini qayta ko‘rish tizimini soddalashtirish hamda yuqori instansiyalar o‘rtasidagi

[1] https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2025/Civil%20Justice/
[2] https://www.law.cornell.edu/wex/due_process
[3] Huquq olami. –Toshkent. Yuridik adabiyotlar Publish, 2023-y. -B.150-165.
[4] https://www.jstor.org/stable/764676
[5] https://law.yale.edu/justice-collaboratory/procedural-justice
[6] https://commons.allard.ubc.ca/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1082&context=fac_pubs; https://en.wikipedia.org/wiki/Open_court_principle

protsessual vakolatlarni maqbul taqsimlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar sud himoyasi kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, amalda apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarining funksional vazifalarini aniq chegaralash, yangi talab va dalillarni qabul qilish mezonlarini bir xillashtirish, sud hujjatini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq qator nazariy va amaliy muammolar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, protsessual huquq normalarining jiddiy buzilishi oqibatlari, shikoyat berish muddatini tiklash mezonlari, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari to‘g‘risida sud hujjati qabul qilingan shaxslarning shikoyat qilish huquqi, prokurorning yuqori instansiyalarda ishtirok etishi hamda sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish hamda odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha mutlaq vakolatlarini saqlab qolgan holda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurati mavjud. Sudning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan ishlar 2024-yilda 1 519 236 ta (2025-yilda 2 196 508), shundan birinchi instansiyada 1 497 184 ta (2 169 425), apellyatsiya bosqichida 12 116 ta (12 956), kassatsiya bosqichida 5 411 ta (8 457), taftish bosqichida 4 525 ta (5 670), yangi ochilgan holatlar bo‘yicha 4 096 ta (4 372)ni tashkil etgan”[1]. Yildan yilga fuqarolik ishlarining yuqori instansiyada qayta ko‘rilishi soni ortib borishi sudyalar ish hajmi va yuklamalarining ortishiga, pirovardida odil sudlovning sifati va samarali amalga oshirilishiga salbiy ta’sir etadi. Bu esa fuqarolik sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), “Sudlar to‘g‘risida”gi (2021), “Prokuratura to‘g‘risida”gi (2001) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023), “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023), “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2025), “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2025), “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2026), ““Odil sudlov - 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida”gi (2026) farmonlari va “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021) qarorlari va

[1]O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 11.08.2026-yildagi № 07-14/26-74643-sonli xati

mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[1]**.** Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar The University of Chicago Law School (AQSh), Turiba University (Latviya), Osgoode Hall Law School of York University (Kanada), University of Massachusetts (AQSh), Saratov davlat yuridik akademiyasi (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Yale Law School (USA), Cornell Law School (USA) kabi oliygohlarda tadqiqot ishlari olib borilgan. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo‘yicha jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan, xususan: fuqarolik ishlarni tez va kam xarajat asosida hal qilish asoslantirilgan (The University of Chicago Law School), fuqarolik protsessida fuqarolarning odil sud muhokamasiga bo‘lgan huquq asoslantirilgan (Turiba University), fuqarolik sud ishlarini yuritishda shaffoflikni ta’minlashda tashqi va ichki omillar asoslab berilgan (University of Massachusetts), fuqarolik sud ishlarni yuritishda ochiqlik, oshkoralik, shafoflikni ta’minlash hamda fuqarolik sud ishlarini unifikatsiyalash va differensiallash zarurati (Saratov davlat yuridik akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti), fuqarolik protsessual modellarida yuqori instansiyalarning vakolat doirasini qat’iy chegaralash (Yale Law School, USA), yuqori instansiyaga shikoyat qilishda tegishli huquqiy tartib-taomilga rioya etish (Cornell Law School, USA) isbotlangan.

Hozirgi vaqtda dunyoda fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo‘yicha, xususan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: sud hujjatlarida huquqiy aniqlik prinsipi, protsessual adolat (procedural fairness) va protsessual odil sudlov (procedural-justice), fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish va virtuallashtirish, sudda nizolarni samarali hal etish tendensiyalari, fuqarolik sud ishlarini unifikatsiyalash, protsessual huquqlarni suiiste’mol qilish va boshqalar.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari mamlakatimiz huquqshunos olimlari Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, B.A.Umarova, D.Yu.Xabibullayev, R.A.Xusainova, M.M.Tajiboyev, O.Sh.Pirmatov, S.A.Maripova, K.K.Olimova, X.A.Quchkarov, Q.X.Mirsagatov,

[1] https://chicagounbound.uchicago. edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6277&context=uclrev; https://www.turiba.lv/storage/files/summary-neimane-en.pdf; https://digitalcommons.osgoode.yorku.ca/phd/75/; https://core.ac.uk/download/pdf/232966674.pdf;https://core.ac.uk/download/pdf/232966674.pdf; https://www.dissercat.com/content/problema-transparentnosti-v-tsivilisticheskoi-protsessualnoi-nauke-i-praktike; https://www.dissercat.com/content /grazhdanskoe-sudoproizvodstvo.

U.T.Shamshidinov, M.M.Urinboyeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida fuqarolik sud ishlarini yuritishning u yoki bu jihatlari o‘rganilgan. Xususan, Sh.Sh.Shoraxmetov tomonidan fuqarolik protsessual huquqining umumiy masalalari, E.Egamberdiyev fuqarolik protsessida da’vo muammolarini, M.M.Mamasiddiqov mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari, Z.N.Esanova bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizoli ishlarni sudda ko‘rishning o‘ziga xos protsessual xususiyatlari, B.A.Umarova fuqarolik protsessida jamiyat va davlat manfaatlariga daxldor ishlarda prokuror ishtiroki, R.A.Xusainova fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida sudda ko‘rish muammolari, D.Yu.Xabibullayev fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari, K.K.Olimova fuqarolik protsessida vakillik institutining muammolari, M.M.Tajiboyev fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hal qiluv qarorlarining nazariy va amaliy masalalari, X.A.Quchkarov fuqarolik protsessida ishlarni soddalashtirilgan tartibda ko‘rish, S.A.Maripova fuqarolik protsessida mediatsiyani qo‘llash, O.Sh.Pirmatov fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish, U.T.Shamshidinov fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokini takomillashtirish, M.M.Urinboyeva fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun’iy intellektdan foydalanishning istiqbollari: qiyosiy-huquqiy tahlil masalalari tahlil etilgan[1].

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari MDH mamlakatlarining bir qator olimlari, xususan, M.K.Treushnikov, V.V.Yarkov, M.A.Vikut, D.M.Chechot, M.S.Shakaryan, G.L.Osokina, A.A.Demichev, A.T.Bonner, F.M.Dmitriyev, I.Puxan, K.I.Malishev, Ye.N.Tamrazova, R.S.Odinayev, N.S.Kalinina, V.N.Sheglov, M.A.Gurvich, N.D.Gribov, Ye.A.Borisova, Ye.V.Karavayeva, Yu.A.Korshunov, L.V.Baydayeva, L.V.Yaroshenko, Z.X.Baymoldina, S.K.Zagaynova, M.L.Skuratovskiy, Yu.A.Timofeyev, T.T.Aliyev, L.S.Morozova, O.V.Isayenkova, I.O.Podvalniy, K.V.Gusarov, N.Lepexina, L.A.Terexova, I.V.Rextina, M.S.Osipova, G.A.Jilin, N.Yu.Zabramnaya, N.Sh.Gadjialiyeva, A.N.Rezunenko va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Xususan T.T.Aliyev fuqarolik sud ishlarini yuritishda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ish yuritish, Ye.V.Karavayeva fuqarolik protsessida apellyatsiya tartibida ish yuritish masalalari, K.V.Gusarov Ukrainada fuqarolik va ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud qarorlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko‘rish modellari, Yu.A.Korshunov Rossiya Federatsiyasi sud tizimida apellyatsiya sudlari, I.V.Rextina fuqarolik protsessida sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish masalalarini o‘rganganligini qayd etib o‘tish joiz[2].

Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik sud ishlarini yuritishni protsessual masalalari A.Kobakhidze, G.Kiria, J.G.Llobregat, E.Lilian, E.Katsh, O.Rabinovich-Einy, H.Surden, V.Tara, T.Sujyan, G.S.Əliyeva, M.Kamiya, A.Petridis, K.Takeshi, J.Wonil, L.Cadiet, E.Jeuland, S.Öztek va shu kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan[3].

[1] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyannng foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.
[2] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyannng foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.
[3] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyannng foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Biroq, mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolari alohida kompleks monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolariga oid tadqiqot rejasiga (2023-2026-yy) muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolariga qaratilgan nazariy xulosalar va qonunchilikni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmunini o‘rganish;

fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish institutining huquqiy tartibga solinishini tahlil qilish;

fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning predmetini tadqiq etish;

yuqori instansiya sudlarida ish yuritishni qaytadan boshlashning protsessual asoslari, subyektlari va xususiyatlarini o‘rganish;

apellyatsiya instansiyasida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rishning protsessual tartibi va sudning vakolatlarini tahlil qilish;

kassatsiya instansiyasi sudlarida fuqarolik ishini ko‘rib chiqish tartibi va uning vakolatlari tahlilini o‘rganish;

fuqarolik sudlarida ishlarni taftish tartibida qayta ko‘rishning protsessual jihatlari va sudning vakolatlari tadqiq etish;

yangi ochilgan holatlar bo‘yicha fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish tartibi va protsessual xususiyatlarini o‘rganish;

rivojlangan xorijiy davlatlarda fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish tajribasini o‘rganish;

MDH davlatlari fuqarolik protsessual qonunchiligida sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish institutini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

yuqori instansiya sudlarida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rilishi samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning ahamiyatini o‘rganish;

fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rilishining protsessual tartibini takomillashtirishga qaratilgan fuqarolik protsessual qonunchiligi va sud amaliyotini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolariga doir

normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, sohaga oid qonunchilik va amaliyot hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda qiyosiy huquqiy tadqiqot, mantiqiy, tahliliy, tarixiy, induksiya va deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilish, huquqni qo‘llash amaliyoti xodimlari bilan so‘rovlar o‘tkazish, normalarni ilmiy sharhlash, sud amaliyotiga oid materiallarni umumlashtirish hamda statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi, apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar, birinchi instansiya sudi tomonidan ish sudga taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, hal qiluv qarorini bekor qilishga va ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra apellyatsiya instansiyasiga ishni boshqa sudga yuborish vakolatini berish kerakligi asoslantirilgan;

apellyatsiya instansiyasida prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli ekanligi asoslantirilgan;

birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) berish huquqini kengaytirish, kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radigan sudlar toifasini aniq belgilash, kassatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi, kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddatlarining protsessual tartiblarini belgilash lozimligi asoslantirib berilgan;

kassatsiya instansiyasida prokurorning ishtirokisiz ko‘rilgan ish bo‘yicha kassatsiya protestiga FPK 403-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirishga asos bo‘lib xizmat qilgan murojaatining ko‘chirma nusxasi ilova qilinishi, bundan qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ishlar bundan mustasno ekanligi asoslab berilgan;

kassatsiya instansiyasi sudi fuqarolik ishini kassatsiya tartibida ko‘rayotganda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishi uchun sudga taqdim etilgan yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi, kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi tomonidan ish hujjatlari to‘liq o‘rganilganligini vaj qilib, ishni faqatgina shikoyat (protest) doirasida ko‘rib chiqishga haqli emasligi, sud kassatsiya bosqichida sud hujjatini to‘liq hajmda tekshirib chiqishi shartligi asoslantirilgan;

fuqarolik protsessida apellyatsiya tushunchasi, apellyatsiya protesti, apellyatsiya institutining asosiy maqsadi, apellyatsiya bosqichi fuqarolik protsessual huquqining mustaqil instituti sifatida uning o‘ziga xos xususiyatlari,

apellyatsiya shikoyatidan voz kechish hamda ishni apellyatsiya tartibida ko‘rishda arz qilingan talablardan voz kechish tartibi va oqibatlari, apellyatsiya instansiyasida ishni ko‘rish bosqichlari, sudning hal qiluv qarorini o‘zgartirish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tushunchalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fuqarolik sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 10, 17, 128, 192, 194, 195, 208, 372^{4}, 389^{5}, 396, 407^{9}, 416, 419^{4}, 419^{5}, 419^{6}, 419^{10}- 419^{12}, 419^{14}, 419^{15}, 419^{20}, 419^{25}, 419^{26}, 419^{27} - 419^{30}, 437, 439-moddalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish asoslantirib berilgan.

sun’iy intellektni fuqarolik sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish jarayonlariga tatbiq etish asoslantirib berilgan;

fuqarolik protsessual qonunchilikka fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nomli yangi bob kiritish lozimligi asoslab berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo‘llash to‘g‘risida”gi yangi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi yangi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko‘rish to‘g‘risida”gi yangi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik sudlari tomonidan sun’iy intellektni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” yangi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

2030 - 2040 - yillarga mo‘ljallangan “Yangi sud - yangi tizim - 2040” O‘zbekiston Respublikasida soddalashtirilgan va yagona sud amaliyotiga yo‘naltirilgan fuqarolik odil sudlovi modelini barpo etish konsepsiya loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2022-2025-yillar va 2026-yil 1-yarim yilligida ko‘rilgan ishlarning statistik ma’lumotlar tahlili, huquqni qo‘llash amaliyotdagi muammolarni aniqlash, ularni yechishga yo‘naltirilgan harakatlar modelining metodik xususiyatga ega tavsiyalar orqali sinovdan o‘tkazilgan. Tadqiq etilgan mavzu bo‘yicha 5255 nafar prokuratura xodimlari, 264 nafar sudyalar va 28 nafar advokat hamda sohaga oid mutaxassislar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilgan va sud amaliyotiga asoslangan 500 dan ortiq fuqarolik ishlari, Bosh prokuratura tegishli boshqarmasi tomonidan umumlashtirilgan sud amaliyoti materiallari o‘rganilib, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari

yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Vakolatli davlat organlari tomonidan natijalarning joriy etilishi bo‘yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusidagi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, qonunni qo‘llash amaliyoti, fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirishda hamda “Fuqarolik protsessual huquq”, “Sudlarda fuqarolik ishlari ko‘rilishida prokuror vakolatini ta’minlash” kabi fanlarini o‘qitishda va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mavzuni tadqiq etish natijasida shakllantirilgan ilmiy qoida, xulosa va tavsiyalardan Fuqarolik-protsessual kodeksini, prokuratura va sudlar to‘g‘risidagi qonunlarni, Oliy sud Plenumining qarorlarini, Bosh prokurorning sohaviy buyrug‘ini hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek fuqarolik ishlari bo‘yicha sud amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi, apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar, birinchi instansiya sudi tomonidan ish sudga taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, hal qiluv qarorini bekor qilishga va ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra apellyatsiya instansiyasiga ishni boshqa sudga yuborish vakolatini berishga oid taklifidan O‘zbekiston Respublikasining “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 25.12.2023-yildagi O‘RQ-887-sonli Qonunining 1-moddasi, 15, 17, 21 - bandlarini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 28.07.2025-yildagi №3/dn-157-sonli dalolatnomasi)*. Mazkur takliflarning joriy etilishi sud amaliyotida birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarida yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga olib kelgan;

apellyatsiya instansiyasida prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha yoki qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli ekanligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko‘rishda prokurorning vakolatlarini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 30.09.2024-yildagi O‘RQ-968-sonli Qonunining 1-moddasi, 1 - bandini shakllantirishda inobatga olingan *(O‘zbekiston Respublikasi*

Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud huquq masalalari qo‘mitasining 02.06.2026-yildagi 045-08/2148-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi prokurorlar tomonidan qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudlarining qarorlarini apellyatsiya muddatida o‘rganib chiqish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilgan;

birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlari ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) berish huquqini kengaytirish, kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radigan sudlar toifasini aniq belgilash, kassatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi, kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddatlarining protsessual tartiblarini belgilash to‘g‘risidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 25.12.2023-yildagi O‘RQ-887-sonli Qonunining 1-moddasi, 23 - bandiga asos sifatida kiritilishida foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 28.07.2025-yildagi №3/dn-157-sonli dalolatnomasi)*. Mazkur taklifning amalga oshirilishi fuqarolik sudlari tomonidan sud amaliyotida uchrayotgan protsessual muammolarni bartaraf etishga olib kelgan;

kassatsiya instansiyasida prokurorning ishtirokisiz ko‘rilgan ish bo‘yicha kassatsiya protestiga FPK 403-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirishga asos bo‘lib xizmat qilgan murojaatining ko‘chirma nusxasi ilova qilinishi, bundan qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ishlar bundan mustasno ekanligi to‘g‘risidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko‘rishda prokurorning vakolatlarini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 30.09.2024-yildagi O‘RQ-968-sonli Qonunining 1-moddasi, 5 – bandini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 11.03.2026-yildagi 27/2-103-26-sonli dalolatnomasi)*. Ushbu takliflarning joriy etilishi sud muhokamasida prokuror ishtirokining samaradorligini oshirishga, tashkiliy-huquqiy tartibga solishga, fuqarolik ishlarining qonuniy, asosli va adolatli hal etilishiga xizmat qilgan;

kassatsiya instansiyasi sudi fuqarolik ishini kassatsiya tartibida ko‘rayotganda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishi uchun sudga taqdim etilgan yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi, kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi tomonidan ish hujjatlari to‘liq o‘rganilganligini vaj qilib, ishni faqatgina shikoyat (protest) doirasida ko‘rib chiqishga haqli emasligi, sud kassatsiya bosqichida sud hujjatini to‘liq hajmda tekshirib chiqishi shartligi haqidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 25.12.2023-yildagi O‘RQ-887-sonli Qonunining 1-moddasi, 28 - bandini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud huquq masalalari qo‘mitasining*

02.06.2026-yildagi 045-08/2148-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi kassatsiya bosqichida fuqarolik ishlarini to‘liq ko‘rib chiqilishini va sud amaliyotida uchrayotgan protsessual muammolarni bartaraf etishga olib kelgan;

fuqarolik protsessida apellyatsiya tushunchasi, apellyatsiya protesti, apellyatsiya institutining asosiy maqsadi, apellyatsiya instituti fuqarolik protsessual huquqining mustaqil tarmog‘i sifatida uning o‘ziga xos xususiyatlari, apellyatsiya shikoyatidan voz kechish hamda ishni apellyatsiya tartibida ko‘rishda arz qilingan talablardan voz kechish tartibi va oqibatlari, apellyatsiya instansiyasida ishni ko‘rish bosqichlari, sudning hal qiluv qarorini o‘zgartirish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tushunchalariga oid konseptual g‘oya va takliflari “Fuqarolik protsessual huquqi” darsligida o‘z ifodasini topgan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 13.05.2022-yildagi 166-sonli buyrug‘i va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 10.03.2026-yildagi 30/5-47291/26-sonli dalolatnomasi)*. Ushbu konseptual g‘oya va takliflar mazkur mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olayotgan tinglovchi, talabalar, magistrant va amaliyot xodimlarining fuqarolik ishlari bo‘yicha apellyatsiya intsansiyasi sudi haqida bilim, o‘quv va amaliy ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta (6 ta xalqaro, 3 ta respublika) ilmiy-amaliy konfrensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami **26 ta ilmiy ish**, shu jumladan, 1 ta monografiya, OAK tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallarda 16 ta ilmiy maqola, shundan 11 ta milliy va 5 ta xorijiy jurnallarda, konferensiyalarda 9 ta, shundan 6 ta xalqaro, 3 ta milliy maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 12 ta paragrafni o‘zi ichiga olgan to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning “**Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarorlari, qarorlari va ajrimlarini qayta ko‘rish bosqichining huquqiy tabiati”** deb nomlangan birinchi bobida fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmuni, fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish

institutining huquqiy tartibga solinishi, fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning predmetiga oid masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotning birinchi paragrafi doirasida sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining tarixiy jihatlari, uning dastlabki paydo bo‘lishi Qadimgi Rimga borib taqalishi haqida xulosaga kelinib, Rim fuqarolik protsessi o‘z rivojlanishida bosqichma-bosqich uch shaklni ya’ni, legisaksion, formulyar va ekstraordinar shakllar orqali rivojlanganligini ko‘rsatadi. Legisaksion hamda formulyar jarayonlarda sudyaning qarori adolatli yoki adolatsizligidan qat’i nazar shikoyat qilish mumkin bo‘lmagan. Legisaksion hamda formulyar jarayonlarning o‘ziga xos jihati ikki bosqichda “in jure” tartibidagi ish yuritish va “in judicio” tartibidagi ish yuritishda namoyon bo‘ladi.

Dissertant yuqori instansiya bosqichlarining tarixiy jihatlari haqida olimlarning (Ye.N.Tamrazova, R.S.Odinayev, G.Kiria, K.I.Malishev, F.M.Dmitriyev) qarashlari asosida tahlil qiladi va sud hokimiyatining mazmuni haqida Sh.Shorahmetov, N.S.Kalinina, D.O‘.Aripov, F.F.Muxitdinovalarning fikrlari asosida fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmunini birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini yuqori sud instansiyasi tomonidan tekshirish imkoniyatida namoyon bo‘lishini, bu institut sud xatosini bartaraf etish, moddiy va protsessual huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash, taraflarning buzilgan huquqlarini tiklash hamda sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishda, sud hokimiyatining nazorat va tuzatish funksiyasini ifoda etishi haqida xulosaga keladi.

Sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining ijtimoiy zaruriyatini bir nechta omillarga ya’ni, sud himoyasi huquqini amalda to‘liq ta’minlash, sud xatolarini bartaraf etish, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni tiklash, sud hujjatlarining adolat talablariga muvofiqligi, sud hokimiyatiga nisbatan jamoat ishonchini mustahkamlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish bilan uzviy bog‘lab, fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida hamda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish institutini oddiy protsessual bosqich sifatida emas, balki fuqarolik sudlovida qonuniylik, asoslilik va adolatlilikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy-huquqiy institut sifatida baholash lozimligini ko‘rsatadi.

Talabgor M.M.Mamasiddiqov, F.F.Muxitdinova, M.M.Tajiboyev, V.P.Belyayev, F.M.Muxitdinov, D.O‘.Aripovlarning sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish instituti haqidagi yondashuvlarini o‘rganib, fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish instituti sud nazoratining o‘ziga xos shakli ekanligi, uning asosiy vazifasi - sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish, sud xatolarini o‘z vaqtida bartaraf etish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilganligini ko‘rsatib, fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmuni to‘g‘risida o‘z mulohazalarini ilgari suradi. Uning fikricha, fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmuni birinchi instansiya sudi qabul qilgan hujjatning qonuniyligi, asosliligi va

adolatliligini yuqori instansiyada tekshirishga qaratilgan, qonun bilan tartibga solingan protsessual faoliyat tizimi hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqi nuqtai nazaridan sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining zaruratini odil sudlovning pirovard natijasi sifatida qabul qilinadigan har qanday sud hujjati qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi, sud hujjatida yo‘l qo‘yilgan xato yoki kamchiliklar qaysi instansiya sudi tomonidan qabul qilingani yoxud u qabul qilinganidan keyin muayyan vaqt o‘tgani bilan emas, balki ularning shaxs huquq va manfaatlariga, qonuniylik va sudlov adolatiga ta’siri bilan baholash kerakligini ta’kidlaydi.

Dissertant fuqarolik sudlarida yuqori turuvchi sudlar faoliyatini baholash mezonlari sifatida, adolatli sudlovning ta’minlanganligi, sud hujjatlarining yakuniyligi va barqarorligi, fuqarolar hamda tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarining samarali himoyalanganligi, ishlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, taraflar tortishuvi va teng huquqliligini ta’minlash, sudya mustaqilligi, ish holatlarini to‘liq va xolis aniqlash, sud xatolarini samarali bartaraf etish, sud amaliyoti bir xilligi, sudlar faoliyatining raqamlashtirilishi va sud hujjatlari ijrosining real ta’minlanishini keltirib o‘tadi.

Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining asosiy vazifasi - sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish, sud xatolarini o‘z vaqtida bartaraf etish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda sud amaliyotining barqarorligi va bir xilligini ta’minlashdan iborat.

Tadqiqotchi fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish - bu birinchi instansiya, ayrim hollarda esa apellyatsiya instansiyasi tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishga qaratilgan, sud xatolarini bartaraf etish, ishtirokchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yagona sud amaliyotiga erishi hamda sud qarorlarining barqarorligi bilan odillik talablari o‘rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi mustaqil protsessual-huquqiy institut ekanligi haqida mualliflik xulosasiga keladi.

Tadqiqot ishida M.M.Mamasiddiqov, T.B.Safarov, E.K.Sobirov, X.Z.Kuchkarovlarning protsessual huquqiy qarashlari tahlil qilinib, muallif fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hujjatlarini yuqori instansiyalarda qayta ko‘rish institutining mohiyatini uchta asosiy yo‘nalishda ifodalaydi: birinchidan, u shaxsning sud orqali himoyalanish huquqini real ta’minlashga xizmat qiladi; ikkinchidan, sud xatolarini bartaraf etish orqali qonuniylik, asoslilik va adolatlilik mezonlarini kafolatlaydi; uchinchidan, yagona sud amaliyotini shakllantirish va sud hujjatlarining transparentligini oshirish orqali odil sudlovga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Dissertatsiyada qator olimlar (F.F.Muxitdinova, S.A.Rustamov, U.A.Tuxtasheva, Sh.Sh.Shoraxmetov, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, Ye.V.Karavayeva, Yu.A.Korshunov, L.V.Baydayeva, L.V.Yarashenko, Z.X.Baymoldina)ning fikrlari o‘rganilib, tadqiqotchi fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning predmeti - bu quyi sud tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning qonuniyligi, asosliligi va

adolatliligini, ish bo‘yicha aniqlangan yuridik faktlar va dalillarga berilgan bahoni, moddiy hamda protsessual huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilganligini, shuningdek sud hujjatining fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlashga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan mustaqil protsessual faoliyat ekanligi haqidagi mualliflik ta’rifini ishlab chiqadi.

Fuqarolik protsessual huquqida yuqori instansiyada sud nazoratining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi: u faqat mustaqil sud organlari tomonidan amalga oshiriladi; qonunda belgilangan protsessual shaklda yuritiladi; taraflarning tengligi va tortishuv prinsipiga asoslanadi; sud hujjatlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirishga qaratilgan bo‘ladi; shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida taftish instansiyasining o‘zi xos jihatlari sifatida quyidagi nazariy xulosalarni ilgari suradi: taftish tartibida faqat muayyan protsessual tekshiruvdan o‘tgan qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining tekshirish predmetiga egaligi; taftish ish yurituvi bosqichma-bosqich tashkil etilgan sud instansiyalari tizimiga egaligi; taftish tartibida shikoyat qilish huquqi qonunda aniq belgilangan subyektlarga tegishli ekanligi; taftish shikoyatini berish uchun maxsus protsessual muddat belgilanganligi; taftish tekshiruvini qo‘zg‘atish va sud hujjatini bekor qilish asoslarini o‘zaro farqliligi; taftish instansiyasi sudi keng protsessual vakolatlarga egaligi.

Tadqiqotda taftish instansiyasining hal qiluv qarori, ajrim va qarorlarini tekshirish predmetiga birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim, qarorlari hamda apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarining ajrimlarini qamrab olishi haqida xulosaga keladi.

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash predmeti sifatida esa yangi ochilgan holatlar bo‘yicha fuqarolik sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari qonuniy kuchga kirgan paytda mavjud bo‘lgan, biroq sudga ma’lum bo‘lmagan holatlar va taftish tartibida (takroran qayta ko‘rish) protest kiritish predmetiga protest keltirilgan paytga kelib ijro etilgan hal qiluv qarorlarini kiritadi.

Dissertatsiyaning “**Fuqarolik protsessual huquqida yuqori instansiya sudlari tomonidan ishlarni qayta ko‘rish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari**” nomli ikkinchi bobida yuqori instansiya sudlarida sud hujjatlarini qayta ko‘rish bo‘yicha ish yuritishni qo‘zg‘atishning protsessual asoslari, subyektlari va xususiyatlari, apellyatsiya instansiyasida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rishning protsessual tartibi va sudning vakolatlari, kassatsiya instansiyasi sudlarida fuqarolik ishini ko‘rib chiqish tartibi va uning vakolatlari tahlili, fuqarolik sudlarida ishlarni taftish tartibida qayta ko‘rishning protsessual jihatlari va sudning vakolatlari, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish tartibi va protsessual xususiyatlari tahlil etilgan.

Tadqiqotchi fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish tartibini quyidagicha tasniflash haqida xulosaga keladi: - apellyatsiya instansiya sudlarida ish yuritish tartibi; - kassatsiya instansiya sudlarida ish yuritish tartibi; - taftish tartibida qayta ko‘rish; - taftish tartibida takroran qayta ko‘rish; - yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish.

Dissertatsiyada bir qator olimlarning (Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, O.V.Isayenkova) taraflar teng huquqliligi prinsipining ahamiyati haqidagi fikrlarini tahlil qilib, yuqori instansiya sudlarida taraflar teng huquqliligi prinsipini ta'minlash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risidagi g‘oyalarni keltiradi: birinchidan, sud hujjati ustidan shikoyat qilish va unga e'tiroz bildirish imkoniyatining kafolatlanishida; ikkinchidan, sud majlisida taraflarning o‘z vajlarini bayon etishi uchun teng sharoit yaratilishida; uchinchidan, yangi dalillar taqdim etish yoki mavjud dalillarga munosabat bildirishda protsessual muvozanat saqlanishida; to‘rtinchidan, yuqori instansiya sudining har bir taraf pozitsiyasini xolis, to‘liq va huquqiy jihatdan baholash majburiyatida.

Dissertatsiyada E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, U.T.Shamshidinov, R.A.Xusainova, I.O.Podvalniy, M.S.Shakaryan, Ye.V.Karavayeva, Ye.S.Samagina, S.K.Zagaynova kabi olimlarning fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlarining maqomi va shu bilan bog‘liq qarashlari to‘g‘risidagi fikrlarini o‘rganib, yuqori instansiya sudlarida ishtirok etuvchi subyektlar doirasini vakolat va vazifalariga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratish haqida xulosaga keladi: birinchidan, ishni qayta ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlari; ikkinchidan, sud hujjatini qayta ko‘rishni talab qilish huquqiga ega bo‘lgan manfaatdor subyektlar; uchinchidan, qayta ko‘rish jarayonida sudga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko‘maklashuvchi yordamchi subyektlar.

Tadqiqotchi tomonidan yuqori instansiya sudlarida ishtirok etuvchi subyektlarni maqomiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: umumiy subyektlar (taraflar, uchinchi shaxslar, ishda ishtirok etuvchi shaxslar), maxsus subyektlar (prokuror, yuqori turuvchi prokuror, Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlari), institutsional maxsus subyektlar (Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil).

Muallif apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish uchun quyidagi to‘rtta zaruriy elementlar mavjud bo‘lishi haqida xulosaga keladi: birinchidan, fuqarolik protsessual huquqida apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar doirasi; ikkinchidan, zaruriy element sifatida subyektlarning vakolat doirasi; uchinchidan apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish uchun obyekt doirasi; to‘rtinchidan, obyektiv tomoni sifatida fuqarolik ishi birinchi instansiya sudlarida ko‘rib chiqilishi uchun fuqarolik huquqiy munosabatlarga daxldor bo‘lishi hamda bu ish keyingi bosqich sudlarida ko‘rib chiqilishi.

Mazkur ilmiy asarda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining tavsiyalari sudga murojaat qilish shakllarini tahlil qilar ekan, apellyatsiya tartibida shikoyat keltirish, apellyatsiya tushunchasi, apellyatsiya institutining asosiy maqsadi hamda apellyatsiya instansiyasining fuqarolik protsessual huquqining mustaqil bosqichi sifatida bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi.

Bob doirasida Belorus Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligi o‘rganilib, FPKning 385-moddasini quyidagi mazmunda 3-qism bilan to‘ldirish taklif etiladi: “Bevosita apellyatsiya instansiyasi sudiga berilgan apellyatsiya shikoyati va (yoki) keltirilgan apellyatsiya protesti ushbu moddada belgilangan

tartibda ularni qabul qilish masalasini hal etish uchun keyingi kundan kechiktirmay birinchi instansiya sudiga yuborilishi lozim”.

Shuningdek, R.A.Xusainova, L.V.Baydayevalarning apellyatsiya tartibida ish yuritish bosqichlari haqidagi qarashlarini o‘rganib, muallif O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessida apellyatsiya instansiyasi sudining sud majlisi yaxlit tuzilmasi sifatida quyidagilarni ilmiy nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatadi: apellyatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha ish qo‘zg‘atish; ishni ko‘rishga tayyorlash; apellyatsiya sudi sudyasining ma’ruzasi; protsess ishtirokchilari tushuntirishlari, qo‘shimcha materiallarni taqdim etish va ko‘rib chiqish; sud majlisida bevosita tekshiriladigan dalillar hajmini aniqlash; sud muhokamasi; apellyatsiya ajrimini qabul qilish va ajrimning mazmun-mohiyatini tushuntirish.

Tadqiqotchi 1927, 1938, 1963 O‘zSSR grajdanlik protsessual va 1997, 2018-yillardagi fuqarolik protsessual kodeksida kassatsiya instansiyasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganib, kassatsiya instansiyasi fuqarolik protsessual huquqining mustaqil instituti sifatida quyidagi o‘ziga xos belgilarga egaligi haqida ilmiy nazariy xulosalarni keltiradi: birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ajrimi ustidan manfaatdor shaxs tomonidan kassatsiya shikoyati (protesti) yuqori turuvchi sudga qonunda belgilangan tartibda beriladi; ishda ishtirok etuvchi yoki huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar kassatsiya shikoyati (protesti)da birinchi instansiya sudining moddiy va protsessual holatlar buzilganligi asos qilib keltiriladi; kassatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan sud hujjati e’lon qilingan kundan boshlab qonunda belgilangan muddat ichida vakolatli sudga topshiriladi; kassatsiya instansiyasi sudi ishni qayta ko‘rishda yangi vajlar va qo‘shimcha materiallarni shikoyat (protest)da ko‘rsatilmagan holatlarda ham ko‘rib chiqadi; kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha ishlar kollegial tarzda ko‘rib chiqiladi; kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, o‘zgartirishga, bekor qilishga va ish bo‘yicha yangi qaror qabul qilishga, qonunda ko‘rsatilgan holatlarda, fuqarolik ishini birinchi instansiya sifatida qayta ko‘rishga, ishni ko‘rmasdan qoldirishga, ish yuritishni tugatishga vakolatli hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida “bir sud – bir instansiya” tamoyilining ijobiy va salbiy jihatlari o‘rganilib, 2020-yilda Oliy sudga nazorat tartibida 22.170 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkichlar 55 ming 76 ta, 2023-yilda 52 ming 287 taga keskin oshib, yuqori instansiya sudlarida o‘rtasidagi muvozanat buzilganligi va bu boradagi olimlar (D.K.Israilova, B.A.Umarova)ning qarashlari tahlil qilinib, muallif o‘zining bir qancha nazariy xulosalarini va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflarini ilgari surgan. Xususan, kassatsiya shikoyati deganda - kassatsiya shikoyati berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlari qonuniy, adolatli va asosli ekanligini tekshirish maqsadida kassatsiya sudiga yozma shaklda murojaat qilishning qonun bilan belgilab qo‘yilgan shaklidir. Kassatsiya protesti - manfaatdor shaxslarning murojati asosida ularning buzilgan qonuniy manfaati va huquqlarini himoya qilish maqsadida birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va

qarorlari qonuniy, adolatli va asosli ekanligini tekshirish uchun prokurorlarning o‘z vakolatlari doirasida kassatsiya instansiyasi sudiga yuborgan talab ekanligi haqida muallif ta’rifini ishlab chiqadi.

Dissertatsiyada sud amaliyotidagi fuqarolik ishlari o‘rganilishi natijasida yuqori sud instansiyalarida o‘tkazib yuborilgan muddatni uzrli deb topish asoslari doirasini kengaytirish va amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining amaldagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini taftish tartibida ko‘rishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarorida aniq tushuntirishlar berish zaruriyatini keltiradi. Talabgor taftish instansiyasida ko‘rilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni o‘rganish natijasida hozirgi kundagi mavjud Plenum qarorlarini hozirgi kun talablariga mos ravishda yangi tahrirda qabul qilish lozimligi haqida xulosani ilgari suradi.

Muallif D.Yu.Xabibullayev, M.Ch.Azberganova, I.V.Rextina, D.J.Suyunovalarning yuqori sud instansiyalarining maqsad va vazifalari haqidagi fikrlari asosida fuqarolik protsessida taftish institutining vazifasi - fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun birinchi instansiya sudi, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlov hay’atlari tomonidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini belgilangan muddatda vakolatli shaxslar tomonidan shikoyat (protest) keltirish orqali tekshirishdan iborat ekanligi haqidagi xulosaga keladi.

Taftish instansiyasining maqsadi - quyi sudlarning qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini oxirgi bosqich sudida qayta ko‘rish orqali fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi haqidagi nazariy tushunchalari ham ilmiy asarda o‘z aksini topgan.

Tadqiqotchi taftish instansiyasida yangi dalillarni qabul qilish va tekshirish masalasida sud amaliyoti hujjatlarini o‘rganishi va Fransiya protsessual qonunchiligini tahlil qilish orqali amaldagi FPKning 419^{27}-moddasiga yangi dalillar qaysi holatlarda qabul qilinishi lozimligi haqida takliflarni ishlab chiqadi.

Tadqiqot ishida taftish instansiyasi vakolatli shaxs tomonidan taftish shikoyati berilishi yoki prokuror tomonidan protest keltirilishi; shikoyat yoki protestning protsessual qonun talablariga muvofiqligini tekshirish; shikoyatni dastlabki o‘rganish va sudlov hay’atiga o‘tkazish; fuqarolik ishni sud majlisida to‘liq va o‘z vaqtida ko‘rish uchun zarur protsessual harakatlarni amalga oshirish; fuqarolik ishni sud majlisida mazmunan ko‘rish; sud hujjatini qabul qilish, e’lon qilish va ish yuritishni yakunlash kabi ish yuritish bosqichlardan iborat ekanligi haqida nazariy xulosalarga keladi.

Mazkur bobda qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish instituti haqida qator olimlar (Sh.Sh.Shoraxmetov, M.M.Mamasiddiqov, L.F.Lesnitskaya, Ye.Slepchenko, K.I.Komissarov, L.A.Terexova, G.A.Jilin, Ye.A.Borisova, T.T.Aliyev)ning qarashlarini hamda o‘tgan yillar davomida mavjud bo‘lgan protsessual qonunchilikni o‘rganish orqali muallif bir qancha nazariy xulosalarga keladi. Jumladan, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish instituti rivojlanishini quyidagi davrlarga ajratadi: birinchi davr - 1864 - 1927-yillar. Bu

vaqt oralig‘ida “Fuqarolik sud ishlarini yuritish ustavi”da qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini yangi holatlar tufayli qayta ko‘rib chiqishning ikkita asosi mavjudligi, ishni ko‘rib chiqish muddatining o‘n yil ekanligi, faqatgina yuqori sud tomonidan ushbu toifadagi ishlar ko‘rib chiqilganligi; ikkinchi davr – 1928 - 1963-yillar. Ushbu davrda O‘zbekiston SSRning FPK qabul qilinishi, unda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud hujjatlarini qayta ko‘rish masalalari alohida bobda yoritilib, ushbu asos bo‘yicha ishni qayta ko‘rib chiqish asosiga bosqichma-bosqich qo‘shimchalar kiritilib, ishni ko‘rib chiqish uchun uch oylik muddat belgilanganligi, qaror qabul qilgan sudlarga ham ariza bilan iltimosnoma kiritish masalasi, ish qo‘zg‘atish huquqiga ega subyektlar doirasi kengayganligi; uchinchi davr - 1964 -1997-yillar. Mazkur davr oralig‘ida yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ariza berish muddatini hisoblashning protsessual tartibi belgilanganligi, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorini bekor qilish asoslari takomillashganligi, sud qarori bekor qilinishiga asos bo‘lgan dalillar doirasi aniqlashtirilganligi; to‘rtinchi davr - 1998-2017-yillar. Ko‘rsatilgan davr oralig‘ida mustaqil O‘zbekistonning FPK qabul qilinganligi, unda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish asoslari, ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan sudlar tarkibi, fuqarolik protsessida fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishning chinakkam huquqiy poydevori yaratilganligi; beshinchi davr - 2018-yildan hozirga qadar. Qayd etilgan vaqt qisqa bo‘lsada, biroq e’tirof etishga loyiq sud-huquq islohotlari olib borildi. Yangi FPK ishlab chiqilganligi, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ariza bilan murojaat etgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra, o‘tkazib yuborilgan arizani berish muddati joriy etilganligi, mustaqil taftish instituti kirib kelishi natijasida qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish bilan bog‘liq protsessual o‘zgarishlar kiritilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining alohida Plenum qarori qabul qilinganligini qayd etish kerak.

Tadqiqotchi sud amaliyotini tahlili orqali yagona sud amaliyotiga erishish uchun amaldagi FPKning 437-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi bandiga “Ushbu bandda nazarda tutilgan qilmishlar jinoyat ishini reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo‘yicha tugatish to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan sud ajrimi yoki vakolatli surishtiruv, tergov yoxud prokuratura organining qarori bilan aniqlangan taqdirda mazkur qilmishning sodir etilganligi protsessual hujjatda tasdiqlangan va u sud hujjati mazmuniga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladi” mazmunida qo‘shimcha kiritishni taklif etadi.

Bob yakunida fuqarolik sudlari tomonidan yangi ochilgan holatlar bo‘yicha 2022-yilda 4331 ta, 2023-yilda 4507 ta, 2024-yilda 4096 ta, 2025-yilda 4372 ta, 2026-yil 1 yarmida 2457 ta ishlarning ko‘rilishi va yildan yilga bu ko‘rsatkichning oshib borishi amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qo‘llash to‘g‘risida”gi Qarorini yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati mavjudligi haqida xulosani shakllantiradi.

Dissertatsiyaning “**Fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishda xorijiy davlatlar qonunchiligi tajribasi”** nomli uchinchi bobida rivojlangan xorijiy davlatlarda fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish tajribasi, MDH davlatlari fuqarolik protsessual qonunchiligida sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish institutining qiyosiy-huquqiy tahlili o‘rganilgan.

Rivojlangan mamlakatlar sifatida Ispaniya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Koreya, Yaponiya davlatlarining fuqarolik protsessual qonunchiligi o‘rganilib, yuqori sud instansiyalarida fuqarolik ishlarini ko‘rish bilan bog‘liq normalarning milliy protsessual qonunchilik bilan o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini solishtirib, bir qator xulosalarni ilgari suradi.

Xususan, N.Gonsales-Kuelyar Serrano, X.G.Lobregat qarashlari asosida Oliy sud kassatsiyani amalga oshiruvchi favqulodda shikoyat bosqichi bo‘lib, u ikki vazifasini, ya’ni muayyan ishda qonuniylikni ta’minlash va huquq normalarining yagona talqinini shakllantirish bo‘yicha fuqarolik ishlarini ko‘ruvchi yakuniy sud instansiyasi ekanligi haqidagi xulosalarni ilgari suradi.

Muallif Ispaniya qonunchiligi asosida soddalashtirilgan tartibda ko‘rilgan sud ishlarini apellyatsiya tartibida shikoyat qilinmasligi kabi munozarali fikrlarni o‘rganib, milliy qonunchilikda ham bu kabi institutni takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Ispaniya fuqarolik protsessual qonunchiligi ko‘ra, kassatsiya instansiyasining tekshirish predmeti sifatida dalillar qaytadan baholanmaydi, ishning faktik holatlari qayta aniqlanmaydi, yangi faktlar keltirilmaydi, apellyatsiya sudi isbotlangan deb topgan holatlar inkor etilmaydi, tarafning o‘ziga maqbul yangi faktik xulosa chiqarish talabiga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidalar asosida milliy qonunchilikda ushbu masalalarga e’tibor qaratish lozimligi haqida xulosalarni ilgari suradi. Ispan va o‘zbek modellari o‘zaro solishtirilib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari haqida nazariy xulosalar keltirib o‘tilgan.

Tadqiqotchi AQSh fuqarolik protsessual qonunchiligini tahlil qilish orqali milliy protsessual qonunchilikda apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarining tekshiruv predmeti deyarli bir xil shaklda bo‘lib, ularning funksional vazifalarini aniq chegaralash lozimligi haqida xulosaga keladi.

Shuningdek, Germaniya fuqarolik protsessual qonunchiligida apellyatsiya instansiyasi ishning faktik va huquqiy jihatlarini qonunda belgilangan chegaralarda qayta baholash instituti sifatida, “Revision” bosqichi esa quyi sudlar tomonidan huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan institutsional nazoratni amalga oshiruvchi bosqich sifatida uning o‘ziga xos xususiyatlari milliy qonunchilik bilan o‘zaro solishtirilishi orqali O‘zbekistonda mavjud ko‘p bosqichli sud tizimini isloh qilish zaruriyatini keltirib o‘tadi.

Ilmiy ishda Turkiya fuqarolik protsessual qonunchiligining yuqori instansiya sudlarida yangi talablar, e’tirozlar va dalillarni qabul qilish shartlari cheklangan shaklda olib borilishi ijobiy jihatlari sifatida qayd etib, milliy fuqarolik protsessual qonunchilikda yuqori instansiyada yangi dalillarni va yangi faktlarni aniqlash doirasini tartibga solish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Fransiya fuqarolik protsessual qonunchiligi tajribasidan kelib chiqib, apellyatsiya instansiyasida ishni ko‘rib chiqish predmetini

kengaytirib, istisno tariqasida yangi talablarni qabul qilish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi haqida masalani ko‘taradi.

Dissertant Janubiy Koreya Respublikasi, Yaponiya davlatlarining fuqarolik protsessual qonunchiligining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilar ekan, apellyatsiya faqat ishni cho‘zish maqsadida berilgan bo‘lsa, sud apellyatsiya yig‘imining o‘n baravarigacha to‘lov undirish haqidagi protsessul normalari milliy qonunchilikda muhokama qilish uchun dolzarb masalalardan biri ekanligi haqida xulosaga kelib, O‘zbekiston FPKda yuqori instansiyaga shikoyat qilish huquqini suiiste’mol qilganligi uchun aynan shunday mexanizm joriy etish kerakligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiya doirasida MDH mamlakatlari ya’ni, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlarining fuqarolik protsessual qonunchiligida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish apellyatsiya, kassatsiya va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ish yuritilishini ko‘rsatib, milliy protsessual qonunchilikda kassatsiya institutini isloh qilish orqali ish yuritish qoidalarini takomillashtirish hamda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish asoslarini boyitish lozimligi haqida xulosaga keladi.

Belorusiya, Rossiya Federatsiyasi fuqarolik protsessual qonunchiligida ham O‘zbekiston kabi fuqarolik ishlarini ko‘rib chiquvchi sudlar ko‘p bosqichli tizimdan iborat ekanligi haqida xulosaga kelib, uning salbiy va ijobiy jihatlarini ajratib ko‘rsatadi. Qozog‘iston, Belorusiya, Rossiya Federatsiyasi fuqarolik protsessual qonunchiligini milliy protsessual qonunchilik bilan qiyosiy o‘rganish O‘zbekiston FPKning 396, 416-moddalari birinchi qismi ikkinchi jumlasini quyidagicha tahrir etish haqida taklifni ilgari suradi: “Sud yangi dalillarni birinchi instansiya sudiga taqdim etmaslik sababi shikoyat beruvchiga bog‘liq bo‘lmagan yoki birinchi instansiya sudi uni qabul qilishni asossiz rad etgan deb topgan holatlarda ularni qabul qilib, o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Dalilni qabul qilish yoki rad etish sabablari ajrimda ko‘rsatiladi”.

Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish FPKning 439-moddasi birinchi qismiga quyidagicha qo‘shimcha kiritish haqida xulosaga olib keldi: “Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni qayta ko‘rish haqidagi ariza hal qiluv qarorini, ajrimni yoxud qarorni chiqargan sudga taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek qonunda prokuror ishtiroki nazarda tutilgan ishlar bo‘yicha prokuror keltirilishi mumkin”.

Dissertatsiyaning “**Fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rilishini takomillashtirish masalalari**” nomli to‘rtinchi bobida fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rilishining protsessual tartibini takomillashtirish, yuqori instansiya sudlarida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rilishi samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning ahamiyatiga oid masalalar o‘rganilgan.

Tadqiqotda yuqori instansiyada tortishuvchanlik prinsipini amalda to‘liq ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Odil sudlov - 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida” 14.08.2026-yildagi PF-

160-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash nuqta nazaridan FPKning 10-moddasi 2-qismiga quyidagi taklif keltiradi: “Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o‘z protsessual huquqlarini amalga oshirish va protsessual majburiyatlarini bajarish uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Sud bir tarafga boshqa taraf oldida ustunlik berishi yoki uning huquqlarini cheklashi mumkin emas”.

Talabgor moddiy ahvoli og‘ir fuqarolar uchun davlat boji sudga kirish huquqini cheklovchi omilga aylanib qolish ehtimoli mavjudligini qayd etib, FPKning 128-moddasiga quyidagicha ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirish lozim degan xulosaga keladi: “Sud jismoniy shaxsning moddiy ahvolini va ishning xususiyatini hisobga olib, qonunda belgilangan mezonlar asosida uni davlat bojini to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilishga, davlat boji to‘lashni kechiktirishga yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga haqli.

Da’vogar da’vodan voz kechgan, taraflar kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzgan taqdirda, to‘langan davlat bojining qonunda belgilangan qismi qaytariladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2026-yildagi PF-160-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar dasturining 18-bandida fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritishda arizani qaytarishning “ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo‘lmasligi” asosini bekor qilish va arizani shu sudning o‘zi tomonidan tegishliligi bo‘yicha boshqa sudga o‘tkazish hamda juz’iy (formal) talablarga rioya etmasdan berilgan da’vo arizasini (arizani) qabul qilgan holda kamchiliklarni sudning faol ko‘magi yordamida bartaraf etish tartibini joriy etish vazifasi belgilanganligi sababli, FPKning 192-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni taklif etadi. Jumladan, “Arizada yoki unga ilova qilingan hujjatlarda bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar mavjudligi arizani darhol qaytarishga asos bo‘lmaydi. Sudya kamchiliklarni, ularni bartaraf etish usulini va buning uchun berilgan muddatni ajrimda aniq ko‘rsatadi.

Arizachi iltimos qilgan taqdirda sud xodimi protsessual betaraflikni saqlagan holda arizadagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tushuntirish beradi. Bunday tushuntirish talabning mazmunini belgilash, dalillarni tanlash yoki ishning ehtimoliy natijasi yuzasidan maslahat berishni qamrab olmasligi kerak.

Agar ariza fuqarolik, iqtisodiy yoki ma’muriy sud ishlarini yuritish tartibida boshqa sud tomonidan ko‘rilishi lozim bo‘lsa, sudya arizani qaytarmaydi va uni ilova qilingan hujjatlar bilan birga tegishli sudga uch ish kuni ichida elektron shaklda yuboradi. Ariza dastlab sudga berilgan kunda tegishli sudga berilgan deb hisoblanadi. Arizani boshqa sudga o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqariladi, uning ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin”.

Muallif bir qator ilmiy ishlarni o‘rganish hamda xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, sud amaliyotida bayonnomada sud majlisida aytilgan barcha fikr, e’tiroz, iltimosnoma va sud harakatlarini so‘zma-so‘z aks ettirish imkoniyati mavjud emasligi haqida tahlillarni keltirib, FPKning 208-moddasiga “Sud majlisining borishi sudning axborot tizimi orqali audioyozuvda to‘xtovsiz qayd etiladi. Texnik imkoniyat mavjud bo‘lganda audio-videoyozuv ham amalga oshirilishi mumkin. Texnik nosozlik qaydni davom ettirishga to‘sqinlik qilsa, sud majlisida tanaffus e’lon qilinadi. Qayd etish obyektiv sabablarga ko‘ra imkonsiz

bo‘lgan holat va uning sabablari sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi” mazmunida qo‘shimchalar kiritish lozimligi haqida xulosaga keladi.

Bundan tashqari, tadqiqotchi ushbu bob doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2026-yildagi PF-160-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan FPKning 17, 194, 372^{4}, 389^{5}, 407^{9}, 419^{5}, 419^{6}, 419^{12}, 419^{13}, 419^{14}, 419^{15}, 419^{20}, 419^{25}, 419^{26}-moddalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida takliflarni ilgari suradi.

Dissertant xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligi hamda xalqaro standartlar asosida O‘zbekistonda mavjud ko‘p bosqichli sud tizimini yanada soddalashtirish, taftish instansiyasini bosqichma-bosqich tugatish hamda yuqori instansiya sudlarida ishni ko‘rib chiqish, sudlarning vakolatlarini aniq chegaralash, yangi dalillarni tekshirish bo‘yicha aniq mezonlar zaruriyati mavjudligi haqida xulosaga kelib, 2030-2040-yillarga mo‘ljallangan “Yangi sud - yangi tizim - 2040” fuqarolik odil sudlovi modelini barpo etish konsepsiyasini yaratish haqida xulosaga keladi.

Konsepsiya doirasida fuqarolik ishlari murakkabligiga ko‘ra soddalashtirilgan, o‘rta va murakkab toifalarga ajratilib, oila, bola, uy-joy, mehnat, intellektual mulk va raqamli munosabatlarga oid ishlar sud tarkibi ichidagi ixtisoslashtirilgan sudlarga taqsimlanishini yagona sud amaliyotini shakllantirishga xizmat qilishi haqida xulosaga keladi.

Tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan konsepsiyada Oliy sud ko‘radigan o‘ta muhim ishlar toifasi, Oliy sudga ishni qabul qilish tartibi, Oliy sud tarkibi va qaror qabul qilish mexanizmi, yagona sud amaliyotini shakllantirishga qaratilgan qoidalar, raqamli odil sudlov va sun’iy intellekt chegaralari, sudyalar korpusi va institutsional ixtisoslashuv hamda shu kabi muhim normalarga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi fuqarolik sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish bilan bog‘liq amaldagi Plenum qarorlari yagona sud amaliyotini shakllantirishga asosiy e’tiborni qaratish kerakligi haqida xulosaga kelib, bir qancha Plenum qarorlarini yangi tahrirda qabul qilish zaruriyatini asoslantirib beradi.

Janubiy Koreya Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining ijobiy jihatlarini o‘rganish orqali yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud hujjatlarini qayta ko‘rish asoslari sifatida FPKning 437-moddasi 2-qismi 5-bandiga quyidagi mazmunda yangi band kiritishni taklif etadi: “ishda ishtirok etuvchi shaxsning manzili ma’lum bo‘lgani holda, uni xabardor qilishga to‘sqinlik qilish maqsadida sudga bila turib yolg‘on manzil taqdim etilganligi va bu uning protsessda ishtirok etish huquqini jiddiy buzganligi”.

Dissertatsiyaning ushbu bobida yuqori instansiya sudlarida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rilishi samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning ahamiyatini o‘rganib, sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rishda sun’iy intellekt sudyaga quyidagi masalalarda yordamchi vazifasini bajarishi mumkinligi haqida nazariy xulosaga keladi: chet tillarini o‘zbek tiliga sinxron tarjima qilishda tarjimon funksiyasini bajarishi; qog‘ozda bir vaqtda takrorlamasdan sud majlislarining “raqamli bayonnomalari”ni yuritishi; hujjatlarni avtomatik tasniflash, ishlarni shakllantirish va hujjatlarni yuritish, raqamli ma’lumotlarni sudning onlayn “bazasi”da saqlashi; bitim bilan bog‘liq ishlarning narxini aniqlashi; sudga taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligini tekshirishi; protsessual

huquqlarni suiiste’mol qilish, fuqarolik protsessini insofsizlarcha cho‘zish va manipulyativ usullarni qo‘llash holatlarini aniqlash; da’vo muddatini aniqlashi; sud ekspertizasi yoki mutaxassis fikri doirasida tezkor ekspert bahosini berishi; yolg‘on ko‘rsatuvlar va qalbakilashtirilgan hujjatlarni aniqlashi; onlayn sud nizolarini hal etishi; nutqni matnga aylantirish, yuz va ovozni tanish, qaror loyihalari uchun shablonlar tayyorlashi; undiruvchilarning ijro varaqasini berish yoki Majburiy ijro byurosiga yoxud boshqa ijro uchun yuborish haqidagi iltimosnomalarini o‘z vaqtida qayta ishlashi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 21.08.2025-yildagi PF-140-sonli, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 22.10.2025-yildagi PF-189-sonli, ““Odil sudlov — 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida” 14.08.2026-yildagi PF-160-sonli farmonlari ijrosi hamda M.M.Mamasiddiqov, D.Yu.Xabibullayev, V.V.Momotov, O.Sh.Pirmatov, F.A.Ergashev, F.B.Ibratova, K.X.Davletova, M.M.Urinboyevalarning protsessual qonunchilikda sun’iy intellektni qo‘llash bilan bog‘liq qarashlarini va Xitoy, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Ozarbayjon, Estoniya, Qozog‘iston, AQSh davlatlari tajribasini o‘rganib, FPKga “Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish” nomli yangi bob kiritishni ilgari suradi.

Ushbu protsessual bobda sun’iy intellektdan foydalanishning maqsadi va qo‘llanilish doirasi, sun’iy intellektdan foydalanish prinsiplari, sun’iy intellektning protsessual maqomi, sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasi bo‘yicha tasniflash, sun’iy intellektdan ruxsat etilgan maqsadlarda foydalanish, yuqori xavfli sun’iy intellektdan foydalanish shartlari, sun’iy intellektdan foydalanish taqiqlangan holatlar, inson nazorati va sudyaning shaxsiy mas’uliyati, xabardor qilish, tushuntirish, e’tiroz bildirish va inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish, sud hujjatlarini tayyorlashda sun’iy intellektdan foydalanish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sun’iy intellektdan foydalanishi, shaxsga doir ma’lumotlar, sir saqlanishi va ma’lumotlardan foydalanish, elektron qayd, audit va natijani qayta tiklash imkoniyati, sun’iy intellekt tizimi va uni yetkazib beruvchiga qo‘yiladigan talablar, sun’iy intellekt hodisalari va ish uzluksizligini ta’minlash, sun’iy intellektdan foydalanishdagi buzilishlarning protsessual oqibatlari, Oliy sudning sun’iy intellektdan foydalanish sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq protsessual normalar o‘z aksini topishi lozimligi haqida takliflarni bayon qiladi.

Shu bilan birga, sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilayotganligi, fuqarolik sud ishlarini yuritishda elektron hujjatlar va raqamli dalillardan foydalanish ko‘lami kengayotganligi munosabati bilan, sudyalar mustaqilligi, adolatli sudlov, taraflar tengligi, shaxsga doir ma’lumotlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlarni himoya qilish, algoritmik shaffoflik hamda axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida tadqiqot doirasida nafaqat fuqarolik sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish bilan bog‘liq, balki birinchi

instansiya sudlarida sun’iy intellektni qo‘llashga oid qoidalarni o‘zida mujassam etgan Oliy sud Plenumi qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

XULOSA

Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining nazariy va amaliy muammolari natijasida tadqiqot doirasida quyidagi nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif, tavsiya va xulosalar beriladi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.Nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali quyidagi tushunchalarga nisbatan zamonaviy yondashuvdagi mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi. Jumladan:

Fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmuni to‘g‘risida muallif o‘z mulohazalarini ilgari surib, fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining protsessual mazmunini birinchi instansiya sudi qabul qilgan hujjatning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini yuqori instansiyada tekshirishga qaratilgan, qonun bilan tartibga solingan protsessual faoliyat tizimi sifatida ta’riflaydi.

2. Muallif fuqarolik protsessual huquqi nuqtai nazaridan sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining zaruratini odil sudlovning pirovard natijasi sifatida qabul qilinadigan har qanday sud hujjati qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi, sud hujjatida yo‘l qo‘yilgan xato yoki kamchiliklar qaysi instansiya sudi tomonidan qabul qilingani yoxud u qabul qilinganidan keyin muayyan vaqt o‘tgani bilan emas, balki ularning shaxs huquq va manfaatlariga, qonuniylik va sudlov adolatiga ta’siri bilan baholaydi.

3. Dissertant fuqarolik sudlarida yuqori turuvchi sudlar faoliyatini baholash mezonlari sifatida, adolatli sudlovning ta’minlanganligi, sud hujjatlarining yakuniyligi va barqarorligi, fuqarolar hamda tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarining samarali himoyalanganligi, ishlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, taraflar tortishuvi va teng huquqliligini ta’minlash, sudya mustaqilligi, ish holatlarini to‘liq va xolis aniqlash, sud xatolarini samarali bartaraf etish, sud amaliyoti bir xilligi, sudlar faoliyatining raqamlashtirilishi va sud hujjatlari ijrosining amalda ta’minlanishini keltirib o‘tadi.

4. Muallif sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rishning ijtimoiy zaruriyatining omillar sifatida sud himoyasi huquqini amalda to‘liq ta’minlash, sud xatolarini bartaraf etish, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni tiklash, sud hujjatlarining adolat talablariga muvofiqligi, sud hokimiyatiga nisbatan jamoat ishonchini mustahkamlash va yagona sud amaliyotini shakllantirishni keltiradi va shu jihatdan fuqarolik sud hujjatlarini apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida hamda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish institutini oddiy protsessual bosqich deb emas, balki fuqarolik sudlovida qonuniylik, asoslilik va adolatlilikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy-huquqiy kafolat sifatida xulosani ilgari suradi.

5. Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish institutining asosiy vazifasi - sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va

adolatliligini tekshirish, sud xatolarini o‘z vaqtida bartaraf etish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda sud amaliyotining barqarorligi va bir xilligini ta’minlashdan iborat.

6. Fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: *fuqarolik protsessida sud hujjatlarini yuqori instansiyada qayta ko‘rish* - fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudlari tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishga qaratilgan, sud xatolarini bartaraf etish, ishtirokchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yagona sud amaliyotiga erishish hamda sud hujjatlarining barqarorligi bilan odillik talablari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi mustaqil protsessual-huquqiy institutdir.

7. Fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasini boyitish maqsadida tadqiqotchi tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hujjatlarini yuqori instansiyalarda qayta ko‘rish institutining mohiyatini uchta asosiy yo‘nalishga ajratadi: birinchidan, u shaxsning sud orqali himoyalanish huquqini real ta’minlashga xizmat qiladi; ikkinchidan, sud xatolarini bartaraf etish orqali qonuniylik, asoslilik va adolatlilik mezonlarini kafolatlaydi; uchinchidan, yagona sud amaliyotini shakllantirish va sud hujjatlarining transparentligini oshirish orqali odil sudlovga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

8. Muallif fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning predmeti tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta’rif ishlab chiqadi: *fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning predmeti* - quyi sud tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini, ish bo‘yicha aniqlangan yuridik faktlar va dalillarga berilgan bahoni, moddiy hamda protsessual huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilganligini, shuningdek sud hujjatining manfatdor shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlashga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan mustaqil protsessual faoliyatidir.

9. Tadqiqotchi fuqarolik protsessual huquqida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash predmeti sifatida yangi ochilgan holatlar bo‘yicha fuqarolik sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari qonuniy kuchga kirgan paytda mavjud bo‘lgan, biroq sudga ma’lum bo‘lmagan holatlar va taftish tartibida (takroran qayta ko‘rish) protest kiritish predmetiga protest keltirilgan paytga kelib ijro etilgan hal qiluv qarorlarini kiritadi.

10. Tadqiqotchi fuqarolik ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish tartibini quyidagicha tasniflash haqida xulosaga keladi:

- apellyatsiya instansiya sudlarida ish yuritish tartibi;
- kassatsiya instansiya sudlarida ish yuritish tartibi;
- taftish tartibida qayta ko‘rish;
- taftish tartibida takroran qayta ko‘rish;
- yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish.

11. Muallif yuqori instansiya sudlarida ishtirok etuvchi subyektlar doirasini vakolat va vazifalariga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratish haqida xulosaga keladi: birinchidan, ishni qayta ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlari; ikkinchidan,

sud hujjatini qayta ko‘rishni talab qilish huquqiga ega bo‘lgan manfaatdor subyektlar; uchinchidan, qayta ko‘rish jarayonida sudga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko‘maklashuvchi yordamchi subyektlar.

12. Dissertant fuqarolik ishlari yuqori instansiya sudlarida ko‘rilishida ishtirok etuvchi subyektlar maqomiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi:

umumiy subyektlar (taraflar, uchinchi shaxslar, ishda ishtirok etuvchi shaxslar);

maxsus subyektlar (prokuror, yuqori turuvchi prokuror, Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlari);

institutsional maxsus subyektlar (Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil).

13. Fuqarolik protsessida apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish uchun quyidagi zaruriy elementlar mavjud bo‘lishi haqida xulosaga keladi: birinchidan, fuqarolik protsessual huquqida apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar doirasi mavjud bo‘lishi; ikkinchidan, zaruriy element sifatida subyektlarning vakolat doirasi aniq belgilangan bo‘lishi; uchinchidan apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltirish uchun ob’ekt doirasi aniq bo‘lishi; to‘rtinchidan, obyektiv tomoni sifatida fuqarolik ishi birinchi instansiya sudlarida ko‘rib chiqilishi uchun fuqarolik huquqiy munosabatlarga daxldor bo‘lishi hamda bu ish keyingi bosqich sudlarida ko‘rib chiqilishi.

14. Muallif kassatsiya, taftish instansiyasining o‘zi xos xususiyatlarini alohida ajratish orqali fuqarolik protsessual huquq nazariyasiga ilmiy nazariy xulosalarni beradi.

15. Fuqarolik protsessida kassatsiya shikoyati, kassatsiya protesti tushunchalari tahlil etilib, mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

Kassatsiya shikoyati deganda - kassatsiya shikoyati berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlari qonuniy, adolatli va asosli ekanligini tekshirish maqsadida kassatsiya sudiga yozma shaklda murojaat qilishning qonun bilan belgilab qo‘yilgan shaklidir.

Kassatsiya protesti deganda - manfaatdor shaxslarning murojati asosida ularning buzilgan qonuniy manfaati va huquqlarini himoya qilish maqsadida birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlari qonuniy, adolatli va asosli ekanligini tekshirish uchun prokurorlarning o‘z vakolatlari doirasida kassatsiya instansiyasi sudiga yuborgan talabidir.

16. Fuqarolik protsessida taftish institutining maqsad va vazifalari tahlil etilib, mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi.

Taftish institutining vazifasi - fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun birinchi instansiya sudi, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlov hay’atlari tomonidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini belgilangan muddatda vakolatli shaxslar tomonidan shikoyat (protest) keltirish orqali tekshirishdan iborat.

Taftish instansiyasining maqsadi - quyi sudlarning qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini oxirgi bosqich sudida qayta

ko‘rish orqali fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

17. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish instituti rivojlanishini quyidagi davrlarga ajratildi:

birinchi davr - 1864 - 1927-yillar;

ikkinchi davr - 1928 - 1963-yillar;

uchinchi davr - 1964 -1997-yillar;

to‘rtinchi davr - 1998 - 2017-yillar;

beshinchi davr - 2018 yildan hozirga qadar.

II. Milliy qonunchilikni takomillashtirish b o‘yicha takliflar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Odil sudlov - 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida” 14.08.2026-yilgi PF-160-sonli Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan amaldagi fuqarolik protssesual qonunchiligining qator normalarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

18. FPKning 10-moddasi 2-qismini quyidagi mazmunda to‘ldirish tavsiya etiladi.

“Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o‘z protsessual huquqlarini amalga oshirish va protsessual majburiyatlarini bajarish uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Sud bir tarafga boshqa taraf oldida ustunlik berishi yoki uning huquqlarini cheklashi mumkin emas”.

19. FPKning 17-moddasiga quyidagicha tahririy o‘zgartirishlar kiritish taklif etildi:*“Ishni apellyatsiya va kassatsiya tartibida viloyat va unga tenglashtirilgan sudda, taftish tartibida esa hududlararo sudda hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida uch nafar sudyadan iborat tarkibda hay’atda ko‘rish amalga oshiriladi”.*

20. FPKning 128-moddasiga quyidagicha ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirish taklif etildi: *“Sud jismoniy shaxsning moddiy ahvolini va ishning xususiyatini hisobga olib, qonunda belgilangan mezonlar asosida uni davlat bojini to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilishga, davlat boji to‘lashni kechiktirishga yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga haqli.*

Da’vogar da’vodan voz kechgan, taraflar kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzgan taqdirda, to‘langan davlat bojining qonunda belgilangan qismi qaytariladi”.

21. FPKning 192-moddasiga quyidagi mazmunda qo‘shimchalar kiritish haqida taklif berildi: *“Arizada yoki unga ilova qilingan hujjatlarda bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar mavjudligi arizani darhol qaytarishga asos bo‘lmaydi. Sudya kamchiliklarni, ularni bartaraf etish usulini va buning uchun berilgan muddatni ajrimda aniq ko‘rsatadi.*

Arizachi iltimos qilgan taqdirda sud xodimi protsessual betaraflikni saqlagan holda arizadagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tushuntirish beradi. Bunday

tushuntirish talabning mazmunini belgilash, dalillarni tanlash yoki ishning ehtimoliy natijasi yuzasidan maslahat berishni qamrab olmasligi kerak.

Agar ariza fuqarolik, iqtisodiy yoki ma'muriy sud ishlarini yuritish tartibida boshqa sud tomonidan ko'rilishi lozim bo'lsa, sudya arizani qaytarmaydi va uni ilova qilingan hujjatlar bilan birga tegishli sudga uch ish kuni ichida elektron shaklda yuboradi. Ariza dastlab sudga berilgan kunda tegishli sudga berilgan deb hisoblanadi. Arizani boshqa sudga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqariladi, uning ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin".

22. FPKning 208-moddasiga *"Sud majlisining borishi sudning axborot tizimi orqali audioyozuvda to'xtovsiz qayd etiladi. Texnik imkoniyat mavjud bo'lganda audio-videoyozuv ham amalga oshirilishi mumkin. Texnik nosozlik qaydni davom ettirishga to'sqinlik qilsa, sud majlisida tanaffus e'lon qilinadi. Qayd etish obyektiv sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lgan holat va uning sabablari sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi"* mazmunida qo'shimchalar kiritish lozimligi haqida taklif ilgari surildi.

23. FPKning 372^4-moddasi ikkinchi qismi 8-bandiga *"majburiy audioyozuv mavjud bo'lmasa va sud muhokamasining qonuniyligini boshqa protsessual vositalar bilan tekshirish imkoni bo'lmasa"* degan mazmunda norma kiritish taklif etildi.

24. FPKning 389^5, 407^9-moddasi ikkinchi qismi quyidagi band bilan to'ldirish taklif etilmoqda:

